

USMON NOSIR SHERIYATINING LINGVISTIK TAHLILI

Saidova Mohinur Yoqubjon qizi

Buxoro davlat universiteti

2-bosqich talabasi

Atoboyeva Aziza Muhiddin qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Namanganda tug'ilib xalq nafasini kuylagan ijodkor asarlarida qo'llangan badiiy san'atlar tahlili ,yozuvchi mahoratiga bo'lgan tashbehlari, "Norbota", "Naxshon" dostonlariga fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: "Norbo'ta" ,Naxshon", "Yurak", "Nasimga deganim", "Bodom gullagan kechasi"

Аннотация: В данной статье анализируется искусство, использованное в творчестве художника, родившегося в Намангане и воспевшего дыхание народа, аллюзии на мастерство писателя, комментарии к эпосам «Норбота», «Нахшон».

Ключевые слова: «Норбота», «Нахшон», «Сердце», «Я сказал Насиму», «Ночь цветущего миндаля».

Abstract: This article analyzes the art used in the works of the artist, who was born in Namangan and sang the breath of the people, allusions to the skills of the writer, comments on the epics "Norbota", "Nakhshon".

Keywords: "Norbota", "Nakhshan", "Heart", "I told Nasim", "Almond blossoming night".

KIRISH

She'riyatning tabarruk ,muqaddas dargohida anvoysi bir chamanzor ,sira xazon bo'lmaydigan mo'jaz bog' yaratib ketgan Usmon Nosir ulug' va abadiy she'riyatning diydasidan oqib ulgurmagan shabnamdir.U hali qahqahaga aylanmay lablarimizda manguga qotib qolgan tabbasumdir.Uning she'rlari ko'z kabi tirik ,jonli ,tutqich bermas hayot poralaridir.

Bog'larga namozgar salqini tushdi

Gullar ham bargini qayirdi asta

Oftob ham suv ichar tog'lardan pastda

Loladek qip-qizil o't-shafaq o'chdi.

Bu kabi satrlar ijodkorning umuman she'riy qiyofasini, poetik ohangini belgilaydi. O'zining yuksak matonati va xalqparvarligi ,betakror istedodi bilan "Xalq dushmani" tamg'asi bosilib qamoqqa olinganda ham ,zamon zayli bilan tegirmon umoniga tashlanganda ham ,u hech qachon o'zining jo'shqin harakatidan to'xtamagan

.O'zining el-yurt oldida mutlaqo aybsiz ekanligiga qat'iy ishongan.Jasoratli ,otashqalb Usmon Nosir 1940-yil 2-avgustda kimsan o'sha Stalin nomiga ariza yozadi.Qamoqda o'tirgan vaqtida ham "She'riy roman",3ta sahna asari,ko'plab she'rlar yozganini xabar qiladi "Men hali yoshman,g'ayratga to'laman! Men xalqimning farovonligi uchun ijod qilishim kerak,men aybsizman"-deya "Saltanat sultoniga" ariza bitgan dovyurak shoir edi.Unga nisbatan oqlov e'lon qilinganda afsuski shoir bu dunyoda o'chmas umr zarvaraqlarini to'ldirib bo'lgandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ha, haqiqatdan ham shoir bugun ham tirik, oramizda yurgandek. Zotan, uning asarlari o'qilmoqda, she'rlari yod olinmoqda, u haqda kitoblar, sahna asarlari yaratilmoidaki, bularning barchasi yuqoridagi misralar nechog'lik asosli ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Iste'dodli shoir To'ra Mirzoning "Usmon Nosir" nomli badiasi, yosh va qalami o'tkir yozuvchi Jovlon Jovliyevning "Usmon Nosir" kitobi va shu nomdagi sahna asari esa uning yosh avlod tessavvurida yangitdan kashf etdi, desak sira mubolag'a bo'lmaydi. Shuningdek, bu kabi asarlarni maktab darsliklariga kiritish va bu orqali aziz farzandlarimiz qalbida o'tmishga hamda ulug' ajdodlarimizga bo'lgan faxr va g'urur tuyg'ularini shakllantirmog'imiz, bugunning, kelajakning Usmon Nosirlarini yaratmog'imiz zarur va ayni chog'da dolzarb ham. Bu borada ayniqsa, prezidentimizning "Otashin shoir, tarjimon va dramaturg Usmon Nosir tavalludining 110 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori o'zining betakror, so'nmas va samimiylayot yo'li, takrorlanmas iste'dodi, sohir she'rlari ila millionlar qalbini zabit etgan ulug' ijodkorining xotirasini abadiylashtirish, uni bugungi kun kitobxoniga yana bir karra tanitish imkonini beruvchi muhum hujjat bo'lganligi ham ayni haqiqatdir!

NATIJALAR

2022-yil 10-fevral kuni O'zbekiston Prezidenti tomonidan "Otashin shoir,tarjimon va dramaturg Usmon Nosir tavalludining 110 yilligini keng nishonlash to'g'risida qaror qabul qilindi".Bu esa Namangan adabiy muhitidan chiqan o'ktam shoirga chuqur hurmat va ehtrom ifodasi edi. Filologiya fanlari kandidanti ,dotsent O'tkir Rashid tabiri bilan aytganda "Shoir hali yashayapdi .U sevgan bog'ida ,sevgan elining dilida yashayapdi". Usmon Nosir she'rlarining mavzui ,mazmuni, xarekteri va tabiatiga qarab adabiyotshunos Ibrohim G'ofurov Usmon Nosirni "Yo'lchi" deb ataydi."U har bir she'rida bizga yo'lchi siy whole side of a person's face, especially the cheek, cheekbones, and temple area, often used to express affection or admiration."Bu tabir to'g'ri shoir xuddi sayohatchi ,yo'lchi kabi yurib,yo'llarda ko'rgan odamlarni ,hodisalarni va tabiiyat go'zaligini suratini she'r orqali oladi.

Ijodkor lirkadan tashqari "Norbo'ta " , "Naxshon" dostonlari "Atlas","So'ngi kun","Zafar" "Dushman" dramalar mualifi hisoblanadi.

Ko'z tutdim ,ko'zlarim nigoron bo'ldi

O,dilbar,siybarim,yuzlari qirmiz

Kiprigi ko'ksiga soya slogan qiz
Ko'z tutdim,yuragim to'la qon bo'ldi

“Naxshon”dostonidagi bu parchada shoirning maashuqani intizor nigohi bilan kutgan ekanligini ,u naqadar go’zal ,xatto kipriklari uzunligidan ko’ksiga soya solishini aytadi.Shu o'rinda shoir Muhammad Yusufning “Kipriklari uzun kokillaridan ...”misralari beixtiyor yodimizga tushadi.

Darhaqiqat, Usmon Nosir buloqdek sof va sho‘xchan she’riyati, o‘z davrining real voqeligini yoritib bera olgan poema va dostonlari bilan xalqning erka farzandiga aylandi. Shoir bir she’rini shunday satrlar bilan boshlaydi:

O, u qanday fusunkor!
Nur bilan to‘lgan butun
Gullari chaman-chaman
Men ularni ichaman.
Ko‘nglimda yashnar bahor
Nur bilan to‘lgan butun...

Naqadar soda va bir paytning o‘zida beqiyos misralar! Bu shoir ko‘ngil bog‘ining tasviri emasmi?! Uning ko‘ngli bahor misoli farahbaxsh nur bilan to‘yingandek go‘yo. Bu haqida Ibrohim G‘afurov yana shunday xotirlaydi: “Ichdan nurlanish juda noyob hodisa. Insoniyatning kamdan-kam farzandlariga nasib bo‘ladi. So‘zning ichdan mo‘jiza kasb etib nurlanishini men Boborahim Mashrabda, Mirzo G‘olibda, Geyneda, Lorkada, Cho‘lponda, Usmon Nosirda kuzatganman”. Albatta, bu qadar diltortar, zavq-shavqqa to‘la satrlarni bitmoq uchun shunchaki shoir emas, balki muhtasham va sohir qalb egasi bo‘lmoq ham lozim.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytmog‘imiz lozimki, Usmon Nosir singari millatimizning asl farzandlari hech qachon xotiralardan o‘chib ketmaydi. Zamonlar o‘zgaradi, avlodlar almashadi, biroq shoir yozgan she’rlari, ta’sirchan asarlari misralarida, ruhi va ohanglarida umrboqiy misoli porlab turaveradi!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Usmon Nosir bitiklari, Toshkent-2010 yil,
2. III-kurs Adabiyot, Akademik litsey uchinchi bosqich o‘quvchilari uchun, “Bayoz” Toshkent-2016-yil,
4. Усмон Носир. Унутмас мени боғим. - Тошкент, Фафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашириёти, 1989 й.
5. Ibrohim G‘afurov. Qismatning ovozi (Usmon Nosir ilhomlari). – Toshkent, 1993-yil
6. A. Oripov, Usmon Nosir haqida so‘z, O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 1983, №3